

VAZIRLAR MAHKAMASINING HOKIMIYAT TIZIMIDAGI MAVQEI

*Fozilov Umid Erkinovich - yu.f.n., dotsent
IIV Akademiya tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyati tizimidagi o'rni, konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, vakolatlari, davlat boshqaruvidagi ahamiyati va ijro hokimiyati tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Mamlakatimizda davlat boshqaruvi faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Vazirlar Mahkamasi, ijro hokimiyati, davlat boshqaruvi, Konstitutsiya, hukumat, davlat hokimiyati, vazirliklar, davlat boshqaruvi organlari.

Qonunlarga asoslangan demokratik davlat qurish jarayonida davlat hokimiyatining samarali tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat hokimiyatining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan ijro hokimiyati davlat siyosati va qabul qilingan qonunlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ijro hokimiyatining oliy organi sifatida Vazirlar Mahkamasi faoliyat ko'rsatadi. U mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy sohalar, davlat dasturlari va qonunlar ijrosini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

Respublikamizda davlat boshqaruvini isloh qilish, ijro hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish va davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Islohotlar natijasi o'laroq, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Hukumati ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi bo'lib, iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga rahbarlik qilishni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatning yagona tizimiga rahbarlik qiladigan kollegial organdir. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadigan asosiy yo'nalishlari doirasida amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgardir.

Mamlakatimizda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxlit tizimiga vazirliklar, qo'mitalar, agentliklar va inspeksiya kiradi. Birinchidan, vazirlik tegishli

sohalarda yagona davlat siyosatini ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan, muayyan yo'nalishda ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradigan, shuningdek tizim ichidagi rahbarlik faoliyatini yakkaboshchilik asosida tashkil etadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organidir. Ikkinchidan, qo'mita tegishli sohada tarmoq ichidagi faoliyatni muvofiqlashtiradigan va tartibga soladigan hamda tizim ichidagi rahbarlik faoliyatini kollegiallik asosida tashkil etadigan, shuningdek vazirlikning tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organidir. Uchinchidan, agentlik tegishli sohada davlat xizmatlari ko'rsatilishini va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqni qo'llash vazifalarini o'zining asosiy vazifasi sifatida amalga oshiradigan, shuningdek vazirlikning tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organidir. To'rtinchidan, inspeksiya tegishli sohalar hamda tarmoqlarda davlat nazorati va tekshiruvini o'zining asosiy vazifasi sifatida amalga oshiradigan, shuningdek vazirlikning tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq alohida maqomga ega bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadigan qo'mitalar, agentliklar va inspeksiyalar tashkil etilishi mumkin. Qonunchilikka muvofiq, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzish hamda tugatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi, inson hamda fuqaroning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, kollegiallik, hokimiyat tarmoqlarining bo'linishi va hamkorligi, shuningdek ochiqlik va shaffoflik Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy prinsiplaridir.

Qonunchilikka asosan, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining a'zolari O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari va vazirlardan iboratdir. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat:

samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va byudjet siyosati amalga oshirilishi, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga doir dasturlarning ishlab chiqilishi hamda bajarilishi uchun javobgar bo'ladi;

barqaror iqtisodiy o'sishni, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, oziq-

ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay investitsiyaviy muhitni yaratish, hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirish bo'yicha choralar ko'radi;

aholini, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;

atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohalarida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi, oilani qo'llab-quvvatlash, mustahkamlash va himoya qilish, an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha choralar ko'radi;

fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ijtimoiy sheriklik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning ishtirok etishini ta'minlaydi;

fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy hamda boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi;

ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi, ularning faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi;

ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha choralar ko'radi;

Qonunchilik palatasiga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzalarni taqdim etadi;

davlat boshqaruvi tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzish, qayta tashkil etish hamda tugatish haqida takliflar ishlab chiqadi;

strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari davlat boshqaruvi tizimiga joriy etilishini ta'minlaydi;

mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim hamda ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yaqin, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategiyalar, konsepsiyalar, dasturlar hamda «yo'l xaritalari»ni amalga oshirish yuzasidan choralar ko'radi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonunda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasi doimiy komissiyalar tuzadi va ularning vazifalarini, funksiyalarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari jumlasiga kiradigan ayrim masalalar bo'yicha takliflar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek Vazirlar Mahkamasining ayrim topshiriqlarini bajarish uchun Vazirlar Mahkamasining muvaqqat komissiyalari va boshqa ishchi organlari tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining ochiqqligini ta'minlashda islohotlar amalga oshirilmoqda. Vazirlar Mahkamasi «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq xalq bilan ochiq muloqotni ta'minlaydi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilishni tashkil etadi.

Bosh vazirning kotibiyati va Bosh vazir o'rinbosarlarining kotibiyatlari jismoniy va yuridik shaxslarning Vazirlar Mahkamasi tarkibiy bo'linmalariga, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga kelib tushgan murojaatlari bilan ishlash monitoringini va tahlilini amalga oshiradi.

Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish holatini o'rganish yakunlari Vazirlar Mahkamasining rayosati majlislarida yoki selektor yig'ilishlarida har chorakda, shu jumladan tegishli mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari ko'rish to'g'risida takliflar kiritgan holda ko'rib chiqiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning samarali tizimi faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi bilan hamkorlik qiladi.

Shunday qilib xulosa sifatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat hokimiyati tizimida muhim o'rin tutadi va ijro hokimiyatining oliy organi sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Vazirlar Mahkamasi qonunlar va Prezident hujjatlari ijrosini ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va davlat siyosatini hayotga tatbiq etish vazifalarini bajaradi. Yangi O'zbekiston sharoitida davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va davlat xizmatlari sifatini oshirish jarayonida Vazirlar Mahkamasining roli yanada ortib bormoqda.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 11 сентябрь «Жисмоний ва юридик шахсларнинг murojaatlari to'g'risida»ги қонуни.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 25 октябрь «Ўзбекистон

Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида»ги Конституциявий қонуни.

4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: 2017.

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: 2018.

6. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: 2021.

7. Конституциявий ҳуқуқ. Дарслик. – Т.: 2024.

8. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: Дарслик. – Т.: 2024.